

TARIXIY MANBALARDA ILM-MA'RIFAT " TALQINI

D.Sh.Raxmatullaeva

Qo'qonDPI dotsenti

Turkiy xalqlar tarixiga nazar tashlansa, qoraxoniylar davri sifatida yuritilgan tarixiy davr alohida o'rniga ega. Ayni shu davrda turkiy xalqlar madaniyati va tilini o'rganishga qiziqishning ortishi tufayli turkiy tillar, bu xalqlarning yashash tarzini aks ettiruvchi qator asarlar maydonga keldi. Bular orasida Yusuf Xos Hojibning "Qutudg'u bilig" va Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarlari alohida ajralib turadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini "turli fan nuqtasidan atroflicha chuqur o'rganish fan taraqqiyoti tarixi sohasida hanuz hal bo'lmay kelayotgan bir qator jumboqlarni yechishga, ko'pgina tortishuvli masalalarni hal qilishga, ba'zi bir mavhum qarashlarga aniqlik kiritishga va yangidan-yangi xulosalar aytishga imkoniyat beradi".

Bu asar xalqimizning uzoq tarixi, o'tmishi haqida bahs yuritadigan ma'naviyat, ma'rifat, bilim to'g'risidagi, turkiy xalqlarning yuksak madaniyatidan darak beruvchi muhim manba sanaladi. Dostonning til xususiyatlari borasida Q.Karimov, E.Fozilov, Q.Sodiqov, H.Dadaboev, F.Abdujabborova, M.Xolmuradova singari ko'plab olimlarning tadqiqotlari mavjud bo'lib, ularda «Qutadg'u bilig» asari, uning leksik va uslubiy xususiyatlari borasida keng ma'lumotlar berilgan.

F.Abdujabbarovanning tadqiqotida «Qutadg'u bilig»dagi shaxs belgi-xususiyati, xarakteri, fe'l-atvorini ifodalovchi leksik birliklar tahlil etilgan bo'lib, ular izchil ravishda leksik-semantik guruhlarga ajratilgan.

M.Xolmuradovanning dissertasiyasida mazkur asar leksikasi tarixiy-etimologik va mazmuniy asosda atroflicha tadqiq etilgan.

"Madaniyat va mafkura tarixi uchun ham asarning qimmatini kattadir. Unda inson hayotining mazmuni va ma'nosi tahlil qilinadi. Insonning jamiyatdagi o'rnini, vazifalari, axloq chegaralari aniqlanadi. Turli tabaqa vakillarining xususiyatlari, yumushlari, dunyoqarashlari borasida so'z boradi va hayotiy yo'l-yo'riqlar, maslahatlar beriladi".

Asarni o'qish mobaynida muallifning nihoyatda teran mushohada egasi, yuqori darajadagi bilim sohibi ekanini anglash qiyin emas.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida, uning nomidan ham ko'rinib turibdiki, bilim, pand-nasihat, ezgulik, ma'rifatga da'vat etuvchi parchalar juda ko'p uchraydi. Masalan:

O'qush ul yulateg qarangqu tuni,

Bilig ul yarug'lug' yarutti sani.

Ya'ni:

Uquvdir chirog'dek qorong'i tuni,

Bilimdir yorug'lik, yorigay seni.

Berilgan parchada o'qush, bilig singari leksik birliklar ishlatilgan bo'lib, bilimning yorug'lik ekanligi, uning xuddi chiroq kabi qorong'i tunni yoritishi ta'kidlanadi. Keyingi parchaga e'tibor qilamiz:

O'qushqa turur bu ag'irliq, etik,

O'qushsiz kishi bir avuchcha yenik.

Ya'ni:

Uquv qadru qimmat uchundir kafil,

Uquvsiz kishi bir hovuchcha yengil.

Bu yerda keltirilgan parchada o'qushqa, o'qushsiz so'zlari vositasida buyuk alloma o'qish, bilim egasi bo'lishning inson uchun, uning kelajagi uchun nihoyatda zarur ekanligini anglash, tafakkur qilish yoki uning aksi orqali izohlagan.

Biligni bedug bil, uqushni ulug',
Bu ikki bedutur udurmish qulug'.

Ya'ni:

Bilimni buyuk bil, uquvni chuqur,
Bu ikkisi birla kishi ulg'ayur.

Insonning ulg'ayishi, aniqrog'i, uning kamoloti uchun bilim va tafakkurning naqadar zarur ekanligi bilim, uquv lug'aviy birliklari yordamida ko'rsatiladi, bilim buyuk darajalarga tenglashtiriladi.

Yuri ey biligsiz, igingni o'ta,
Biligsiz utunsan, e bilga quta.

Ya'ni:

Kel ey nodon, izla bu dardga davo,
Bilimsiz tubandir, qadrli dono.

Insonni bilim egallashga chorlovchi, barcha ezgu amallarning zaminida bilim, ma'rifat yotishini targ'ib etuvchi fikrlar o'sha davrlardayoq juda sodda, tushunarli satrlarda ifodalanganligini asar matni orqali kuzatish mumkin. Ya'ni biligsiz (bilimsiz, nodon), bilga (dono) so'zlari orqali kishining ijobiy yoki salbiy xislatlar egasi bo'lishi haqida ham ogohlantiriladi.

Keyingi misralarda bu fikr yanada rivojlantiriladi:

Qamug' ezguliklar bilig asg'i ul,
Bilig birla bo'ldi masal ko'kka yo'l.

Ya'ni:

Hamma hayrli ishlar bilim nafidur,
Bilim hatto osmon sari yo'l ochur.

Bu yerda bilim, ezgulik tushunchalari bir-biriga egiz sifatida berilgan, bilig (bilim) orqali osmon sari yo'l olish mumkinligi aks ettirilgan.

Bilig qadrini ham biliglig bilir,
Guhar qadrini ham guhar – o'q bilir.

Ya'ni:

Bilim qadrini ham bilimli bilar,
Guhar qadrini ham guhargar bilar.

Neku bilga telva bilig qadrini,
Bilig qayda bo'lsa biliglig bilir.

Ya'ni:

Nechuk telba bilgay bilim qadrini,
Bilim qayda bo'lsa, bilimli bilar.

Mazkur parcha beixtiyor kishiga "Zar qadrini zargar biladi" maqolini eslatishi tabiiy. Demak, bilig (bilim), biliglig (bilimli), guhar (gavhar, zar), telva (telba, nodon) tarzidagi lug'aviy birliklar ilm olish, uning mashaqqatlari, ilmi kishining mushohada doirasi haqida bahs yuritadi.

Ko'rinadiki, yuqorida keltirilgan parchalar orqali Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "ilm-ma'rifat" sememali bilig, biliglig, o'qush, biligsiz, bilga tarzidagi lug'aviy birliklarning barchasi hozirgi o'zbek tilidagi semalari bilan muvofiq keladi. B.Abdushukurov "aqlsiz, aqldan ozgan, telba" semasiga ega o'gsuz so'zining "Qutadg'u bilig" da qo'llanilganligini ta'kidlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, asarda ilmi, dono kishilarni qadrlash, ularni hurmat qilish, ularning bilimlaridan samarali foydalanish masalasi ham o'rta tashlanadi. Q.Karimovning ta'kidlashicha: "Olimlarga juda hurmat bilan qarash, ular ilmini qadrlash, o'zlarini taqdirlash kerak. Chunki

ularning bilimlari xalqning yo'lini yoritadi, ulargina yarog'li va yarog'siz ishlarni farqlab beradilar, ular qo'y surukiga boshliq kabilar. Shuning uchun ularni qattiq gapirib xafa qilib qo'ymaslik, ulardan iymannoq, bilimlarini o'rganmoq lozim".

B.Abdushukurov eski turkiy adabiy til, xususan, "Qisasi Rabg'uzi" asarining tili, leksik xususiyatlari to'g'risida to'xtalar ekan, bu davr manbalarida kitobatchilik terminlarining qo'llanilishi borasida fikr yuritadi:

"1) qo'lyozma turlarini ifodalovchi leksemalar: kitâb – kitob, kitâbat – ko'chirib yozish, bitig – yozuv, nâma – maktub, daftar – daftar, xat – maktub;

2) yozuv ashyolarini bildiruvchi terminlar: qağaz – qog'oz, qalam – qalam, xâma – qalam, davât – yozish uchun siyoh solinadigan idish;

3) kitobatchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslar nomi va ularning faoliyatiga doir so'zlar: bitigçi – kotib, lavha – yozuv taxtasi, naqqâş – naqqosh".

"O'zbek tilining izohg'li lug'ati"da bitik so'zi omonim so'z sifatida izog'lanadi, uning dastlabki ma'nosi shunday izohlanadi:

Bitik – 1. Yozuv.

2. Xat, maktub, asar.

Ko'rinadiki, mazkur so'zning yozuv ma'nosi hozirgacha saqlangan bo'lib, bu so'z ma'lum uslubiy maqsadlarda qo'llaniladi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan "ilm-ma'rifat" sememali leksemalar orasida ham turli fan sohalari, ularning vakillari, xilma-xil predmet, jarayon yoki harakat ifodalovchi leksemalar kishi e'tiborini tortadi.

Masalan:

O'qushqa biligka bu tilmachi til,

Yaruttachi erni yo'ruq tilni bil.

Ya'ni:

Zakovat, bilimga kalitdir bu til,

Yoritguvchi erni ravon tilni bil.

Berilgan parchada o'qushqa, biligka so'zlari ishtirok etgan bo'lib, uning ma'nolari tarkibidagi "o'rgatish", "yo'l ochish" semalari yaruttachi (yoritguvchi), yo'ruq (yo'l-yo'riq) so'zlari bilan bog'lanish uchun asos bo'lmoqda.

Asarda fanlarning tasnifi, ilm-ma'rifat sohasi egalari nomlari, ular bilan tutashgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ham keltirib o'tilgan. Masalan:

Ulardan birisi o'tachi turur,

Qamug' ig, tug'aqa bu emchi erur,

Ya'ni:

Ulardan biri bu tabiblar turur,

Hama dard, kasallarga hoziq erur.

Keltirilgan parchada o'tachi (tabib) kasb-kor nomi, bu leksema bilan mazmunan tutash bo'lgan ig (dard), tug'aqa (kasal), emchi (hoziq, davolovchi) so'zlari qo'llanilgan.

Bu misralar M.Xolmurodova tomonidan ham izohlanar ekan, tadqiqotchi ushbu derivatning sof turkiy ekanligi, davolamoq fe'liga shaxs oti yasovchi qo'shimcha qo'shilganligi, bu so'z "Devonu lug'otit turk"da ham "davolovchi, tabib" ma'nosida qayd etilganligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchining ko'rsatishicha, "Yusuf Xos Hojibning qomusiy bilimlar sohibi ekanligi tibbiy tushunchalar izohida ham ko'zga tashlanadi. Asar matnida tibbiyot bilan mashg'ul shaxs otlari o'z aksini topgan".

Dostonda, bundan tashqari, geometriya, hisob, badiiy adabiyot singari qator sohalarga bog'liq tushunchalar nomlari ham keng ifodalangan.

Bilayin tesa san o'qi handasa,

Achilg'ay saqish qapg'a munda basa.

Ya'ni:

Bilayin desang sen o'qi handasa,

Ochilg'ay hisobning eshigi rosa.

Bu o'rinda handasa (geometriya), saqish (hisob) leksemalari qo'llanilgan bo'lib, geometriya va hisob (arifmetika) tushunchalarining o'zaro bog'liq ekanligi izohlanadi.

Basa keldi shair bu so'z terguchu,

Kishik o'gguchular yema so'kguchi.

Ular o'gsalar, o'gda elka barir,

Qali so'ksalar, ati artab qalir.

Ya'ni:

Yana keldi shoir – bu so'z terguchi,

Kishin madh etuvchi yoki so'kguchi.

Ular maqtasa, madhi elga borar,

Agar so'ksa, inson nomi bulg'onar.

Ushbu misralarda shair (shoir), o'gguchular(madh etuvchilar), so'kguchi (tanqid qiluvchi) so'zlari ishtirok etgan bo'lib, mazkur tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo'lida oqilona va samarali foydalanish bizning vazifamiz, kelajak avlodlar oldidagi burchimizdir.

Foydalanilgan manbalar:

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутудғу билиг(Саодатга йўлловчи билим). Тошкент: Фан, - 1972.
2. Каримов К. Категория падежа в языке «Кутадгу билик». Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Т., 1962;
3. Содиқов Қ. XI – XIV аср уйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Филол. фан. док...дисс.–Т., 1992.–Б.230; шу муаллиф. Туркий матннавислик тарихидан. Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т.:Ёзувчи, 2000; шу муаллиф. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Т., 2006.
4. Абдужаббарова Ф. «Кутадғу билиг»даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. номз... дисс. –Т., 2011.;
5. Холмурадова М. “Кутадғу билиг” лексикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019;
6. Дадабоев Х. Қадимги ёзма ёдгорликларда ҳарбий лексика // Адабий мерос. 1980. <https://fayllar.org/11-mavzu-xxi-asr-bolasini-qanday-tarbiyalash-kerak-reja.html>